

RUHIYAT TASVIRIDA RANG TALQINI

Shukurova Amira Abduhakimovna,

Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti

e-mail: amirashukurova@gmail.com

Annotatsiya. Mumtoz o'zbek she'riyatida ruhiyat tasviri tamoyillari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ruhiy kechinma ifodasida ranglarning ramziy qo'llanilishi, rang simbolikasining obrazlilik, lirik qahramon ma'naviy-ruhiy holatini ochib berishdagi roli mazkur maqolada Bobur she'riyati misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Bobur, she'riyat, ruhiyat, rang, tahlil, sariq, qizil, tasvir.

ТОЛКОВАНИЕ ЦВЕТА В ИЗОБРАЖЕНИИ ПСИХИКИ

Шукурова Амира Абдухакимовна

докторант Самаркандского государственного

педагогического института

Аннотация. В классической узбекской поэзии принципы изображения психики проявляются особым образом. В статье на примере поэзии Бабур анализируется символическое использование цветов в выражении духовных переживаний, роль цветовой символики в раскрытии образности и духовно-психологического состояния лирического героя.

Ключевые слова: Бабур, поэзия, психика, цвет, анализ, жёлтый, красный, изображение.

INTERPRETATION OF COLOR IN THE DEPICTION OF PSYCHIC STATES

Shukurova Amira Abduhakimovna

PhD student at Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. *In classical Uzbek poetry, the principles of depicting the psyche are expressed in a distinctive manner. This article analyzes, using the example of Babur's poetry, the symbolic use of colors in conveying spiritual experiences and the role of color symbolism in revealing imagery and the spiritual-psychological state of the lyrical hero.*

Keywords: *Babur, poetry, psyche, color, analysis, ellow, red, depiction.*

Ijodkor lirik qahramonning xilma – xil kechinmalarini tasvirlashda bir qancha poetik vositalardan foydalanadi. Shunday poetik usullardan biri – ranglarning ramziy qo'llanilishidir. Rang qahramon ruhiyatini aks ettiruvchi, uning quvonchi, g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ulari haqida tasavvur uyg'otuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy asarda rang mohiyati – bu ranglarning nafaqat tasviriy vosita, balki ramziy, psixologik va g'oyaviy ma'no yuklovchi unsur sifatida qo'llanilishidir.

Rang – moddalar chiqargan yoki qaytgan nurlanish spektriga mos ravishda yorug'likning muayyan ko'rish tuyg'usini hosil qilish xossasi. Nurlanishning yorug'lik energiyasi atrofidagi buyumlardan qaytib, ko'z qorachig'i orqali ko'zning sezgir hujayraviy pardasiga tushib, unga faol ta'sir qiladi. Modda qaysi rangdagi nurni yutsa, o'sha rangdagi nurni o'zidan chiqaradi.[6,1]

Tabiatda mavjud ranglarning turli ramziy ma'nosi bo'lib, ular insonlarning etnik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi u yoki bu haqiqatlarni aks ettirgan. Odamlar endi ranglarni farqlay boshlaganlarida oq, qizil va qora rangni o'zaro ajratishgan. Keyinchalik xitoyliklar tomonidan sariq rang iste'molga kiritilgan. O'rta asrlarda buyuk rassom Leonardo da Vinchi garmonik qarama-qarshiliklarni aniqlaydi. Bular: oq – qora, sariq – ko'k, qizil – yashil. Gyotening fikricha, barcha quyuk ranglar odamni tinchlantiradi, engil ranglar esa hayajonga soladi. Har bir rang ma'lum poetik obraz va ramzni ifodalagan. "Oq rang – yorug'lik, baxt, ishonch, umid ramzini; qizil rang ozodlik, baxtiyorlik, kelajakka bo'lgan umid ramzini ifodalasa, qora ranglar barcha

xalqlarda hayotdagi singari qorong'ulik, g'am, qayg'u ramzi sifatida, sariq rang esa ayriliq, hijron ramzi sifatida ishlatilib, an'anaviy ma'no anglatgan". [7,45] Kishilarning dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati, diniy-ilohiy tushunchalar bilan bog'liq tarzda ranglarga munosabat o'zgargan.

Ranglar va ularning ramziy ma'no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo'lining o'zgarishi bilan ranglarga munosabat, rangdan ko'zlangan maqsad o'zgarib, ba'zan butunlay yangilanib boradi. Sariq rang – quyosh, hayot, muqaddaslik ramziy ma'nosiga ega. Qadimgi xitoyliklarda u baxt, shodlik mazmunida ishlatilgan bo'lsa, Yevropada, aksincha, nafrat tuyg'usini ifodalagan. Yaponlarda esa sariq va nofarmon gullardan motam marosimlari uchun gulchambar tayyorlashgan.[5,138] Bobur she'riyatida sariq rang, xazonrezgi ko'p qo'llanadigan badiiy vosita. Bunday tasvirlar ko'p ma'noli qamrovga ega. Unda biz yordan ayrilgan oshiq holati, Vatandan yiroqdagi shoir ruhiy kechinmalarini ifodasini anglaymiz. Y. Is'hoqov "Navoiy poetikasi" nomli asarida she'riyatdagi poetik bir unsur sifatida ijodkorlar asarlaridagi rang bilan bog'liq tasvirlarni tahlil qilar ekan, rang qo'llash usuliga ko'ra g'azallarni quyidagicha guruhlarga joylashtirib chiqadi: 1. Tasvir boshdan oxiriga qadar bir rang doirasida boradigan g'azallar. 2. Bir qator g'azallar esa real voqelik ta'sirida yaratiladi, ularda tabiat manzaralari tasviri asosiy o'rin tutadi. Lirik qahramonning ruhi va kechinmalarini ochib berishda ranglardan fon sifatida foydalaniladigan g'azallar. 3. Bir guruh g'azallar o'zining simvolik xarakteri jihatidan boshqa g'azallar dan farq qiladi. Bu kabi g'azallarda ma'shuqa biror rangdagi libosda namoyon bo'ladi. [2. 31]

Boburning "Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim" satri bilan boshlanadigan g'azali yuqoridagi tasnifning ikkinchi guruhiga hamohang g'azallar sirasiga kiradi. Bu g'azalda shoir tabiat tasviridan lirik qahramonning ruhi va kechinmalarini ochib berishda bir fon sifatida foydalanadi. Tabiat tasviridagi har bir detal lirik qahramon holatining ma'lum tomonini, uning xazin holatini yoritishga xizmat qiladi:

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,

Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim. [1, 28]

Shoir umrning ayriliqda o'tayotganidan zorlanib, "lolarux" (lola yuzli) dan rahm qilishni iltijo qiladi. Matla'da Bobur tazod san'atidan mohirona foydalanib, bu erdagi ruhiy holat ifodasida sariq rang bilan bog'liq tasvirlar- ning etakchilik qilayotganini sezish mumkin. *Xazon – sarg'ardim – chehrayi zardim* silsilasi shu vazifani bajaradi. Ularga zid tarzda esa «gul yuz» hamda *lolarux* ifodalari tanlangan. Umumiy tarzda birinchi baytni o'z yoridan ayril -gan lirik qahramonning hijron azoblaridan shikoyati hamda bunga yor e'tiborini qaratishga urinish tarzida baholash mumkin.

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,

Oyog'ingga tushib bargi xazondek qancha yolbordim. [1, 28]

Birinchi baytda *gul* yorning yuziga tavsif tarzida keltirilgan edi. Keyingi baytda u to'g'ridan to'g'ri yorning o'zini ifodalaydi. Yor (*gul*) sarvga o'xshaydi. Bu erda yorning tik va baland qomati e'tiborga olingan. Odatda, mumtoz adabiyotimizda yorning yosh, tik va go'zal qomati sarvga nisbat beriladi. Biroq ulardan farqli tarzda shoir sarvning «sarkash»ligiga, ya'ni uning itoatsizligi, o'jarligiga urg'u berib, bu obrazning mazmuniga yangilik kiritmoqda. Bu bejiz emas. Lirik qahramon «xazon yaprog'i»ni yana bir marta eslatyapti. Endi u «bargi xazon» ko'rinishida kelmoqda. Birinchi baytda xazonning rangi alohida e'tiborda edi. Bu baytda uning harakati, shitirlashi, daraxtning tepasidagi emas, balki pastga, erga tushgan holati nazarda tutilgan. Shoir xazonning shitirlashi (shivirlashi) va oshiqning yolvorishida ichki bir uyg'unlikni ko'radi.

Keyingi bayt:

Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,

Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim. [1,28]

Oshiq yana o'z holatini xazonga o'xshatishda davom etadi. Endi unga "qon yoshim" va "sorig' yuzim" ifodalari qo'shiladi. Agar kuz paytidagi daraxt barglarini, ayniqsa, erda yotgan xazon barglariga e'tibor berilsa, ulardagi sariq va qizil ranglar uyg'unligini kuzatish mumkin. Bobur ayni mana shu holatlarni nazarda tutgan holda ko'z yoshini ham, o'z yuzini ham xazonga o'xshatmoqda. Kuz manzarasi fonidagi qahramon holatiga e'tibor berish joiz ko'rinadi. Yuqori dagiday holat egasining go'zal ko'rinmasligi tabiiy hol. Bobur ruhiy holatdan begona ko'ngilning insonni

tushunmasligini, keyingi baytdagi mazmunda mana shunday «ko'ngilni tushunmaydigan ulusdan o'zni qutqarish» kerakligini bayon etadi.

*Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydi,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.*

*Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.[1,28]*

Lirik qahramonning mazkur holatida atrofdagilarning munosabati juda muhim ko'rinmaydi. Ular buni maqtashadimi yoki unga ta'na-yu malomatlar qilishadimi, baribir. Bu boshqalarni mensimaganligi yoki boshqalarning fikr-mulohazalariga e'tiborsizligi uchun emas, balki hayotda haddan tashqari ko'p hodisalarga duch kelgani, olamda ko'plab yaxshi-yomon voqealarni boshdan o'tkazgani uchundir. Akademik V. Zohidov ta'biri bilan aytganda: "Bobur tarix maydonida paydo bo'lgan davr juda katta, murakkab va ziddiyatli hodisalarga to'la edi. Boburning ilmiy va adabiy faoliyati ana shu hodisalarga bog'liq bo'lib, uning taqdirida o'sha hodisalar katta rol o'ynagan". [4,48-bet]

Bobur o'z she'rlarida har bir ibora, har bir so'zga jiddiy munoabatda bo'lgan va ulardan o'rinli foydalangan. Bu hol uning rang bildiruvchi so'zlar va ularning sinonimlariga bo'lgan munosabatida ham ko'rinadi. Ijodkor qo'llagan rang ramzlari obrazlilikni vujudga keltirib, lirik qahramon ruhiyatini ochishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimjonova S. Boburning hind devoni. – T.: Fan, 1966, - B.127.
2. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983, - B.167.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediya. - T.: Sharq, 2014. – B.744.
4. Zohidov B. O'zbek adabiyoti tarixidan. - T.: Badiiy adabiyot, 1961. 48-b.
5. O'tanova S. Alisher Navoiy she'riyatida rang simbolikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya. – T.:2007 B.138.